



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozo Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOB VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozo Komil Bahromovich</i>	122

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirinov Uchqun Abduxalilovich

SamiSI, dotsent ushirinov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-2146-9484

Abdug'ufurov Og'abek Tolib o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
ogabek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur mavzuda nomoddiy aktivlarni hisob obyektini sifatida tasniflash va tavsiflashning nazariy-uslubiy asoslari yoritilib, ularni buxgalteriya hisobida tan olish, baholash, amortizatsiya qilish hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Nomoddiy aktivlar tarkibiga patentlar, litsenziyalar, dasturiy ta'minot, mualliflik huquqlari, savdo belgilari, gudvill va boshqa intellektual mulk obyektlari kiritilib, ularning iqtisodiy mazmuni, korxonaga qiymatini shakllantirishdagi o'рни va kelgusida iqtisodiy naf keltirish xususiyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: nomoddiy aktivlar, hisob obyektini, tasniflash, tavsiflash, intellektual mulk, patent, litsenziya, dasturiy ta'minot, amortizatsiya, moliyaviy hisobot.

Abstract: This topic covers the theoretical and methodological foundations of the classification and description of intangible assets as accounting objects, and examines the issues of improving the processes of their recognition, valuation, amortization and reflection in financial statements. Intangible assets include patents, licenses, software, copyrights, trademarks, goodwill and other intellectual property objects, and their economic content, role in the formation of the value of the enterprise and the characteristics of bringing economic benefits in the future are substantiated.

Keywords: intangible assets, accounting object, classification, description, intellectual property, patent, license, software, amortization, financial reporting.

Абстрактный: Данная работа охватывает теоретические и методологические основы классификации и описания нематериальных активов как объектов учета, а также рассматривает вопросы совершенствования процессов их признания, оценки, амортизации и отражения в финансовой отчетности. К нематериальным активам относятся патенты, лицензии, программное обеспечение, авторские права, товарные знаки, деловая репутация и другие объекты интеллектуальной собственности, а также обосновывается их экономическое содержание, роль в формировании стоимости предприятия и особенности получения экономической выгоды в будущем.

Ключевые слова: нематериальные активы, объект учета, классификация, описание, интеллектуальная собственность, патент, лицензия, программное обеспечение, амортизация, финансовая отчетность.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar, innovatsion faoliyat va intellektual kapitalning rivojlanishi natijasida nomoddiy aktivlarning korxonalar qiymatini shakllantirishdagi ulushi keskin ortib bormoqda. Dasturiy ta'minotlar, patentlar, litsenziyalar, savdo belgilari, mualliflik huquqlari hamda brend qiymati kabi nomoddiy aktivlar korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biriga aylangan. Shu sababli ushbu aktivlarni xalqaro standartlar asosida to'g'ri tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish masalasi zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 38-son MHXS talablari asosida nomoddiy aktivlarni dastlabki va keyingi baholash, amortizatsiya qilish hamda qadrsizlanishini aniqlash investorlar va kreditorlar uchun ishonchli moliyaviy axborot shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga bosqichma-bosqich o'tish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlari korxonalarda nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Amaliyotda esa ayrim korxonalarda nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlarini noto'g'ri qo'llash, ularning boshlang'ich qiymatini aniqlashdagi kamchiliklar, amortizatsiya siyosatini noto'g'ri shakllantirish va qadrsizlanish testlarini o'tkazmaslik holatlari uchrab turadi. Natijada moliyaviy hisobotlarda aktivlar qiymati sun'iy ravishda oshib yoki kamayib ko'rsatilishi mumkin. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan nomoddiy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va ularning auditini

samarali amalga oshirish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, nomoddiy aktivlar auditini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida nomoddiy aktivlarning mavjudligi, ularga egalik huquqi, baholashning asoslanganligi hamda amortizatsiya hisob-kitoblarining to'g'riligi tekshiriladi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt, elektron platformalar, dasturiy mahsulotlar va IT xizmatlar bilan bog'liq nomoddiy aktivlarning ulushi ortib borayotgani ularning hisob va audit metodologiyasini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu bois "Xalqaro standartlar asosida nomoddiy aktivlar hisobi va auditi" mavzusini ilmiy tadqiq etish korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlar shaffofligini ta'minlash hamda xalqaro investitsion muhitga integratsiyalashuvni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).


Nomoddiy aktivlarni hisob obyektini sifatida tasniflash va tavsiflash masalasi ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Jumladan, IAS 38 standartida nomoddiy aktivlar jismoniy shaklga ega bo'lmagan, identifikatsiyalanadigan va kelgusida iqtisodiy naf keltiruvchi aktiv sifatida baholanadi [1]. O'zbekiston Respublikasining 7-son BHMSida esa nomoddiy aktivlarni tan olish, dastlabki baholash, amortizatsiya qilish va hisobdan chiqarish tartiblari milliy shaklga ega bo'lmagan, identifikatsiyalanadigan va kelgusida iqtisodiy naf keltiruvchi aktiv sifatida baholanadi [1]. O'zbekiston Respublikasining 7-son BHMSida esa nomoddiy aktivlarni tan olish, dastlabki baholash, amortizatsiya qilish va hisobdan chiqarish tartiblari milliy shaklga ega bo'lmagan, identifikatsiyalanadigan va kelgusida iqtisodiy naf keltiruvchi aktiv sifatida baholanadi [1]. A. Karimov nomoddiy aktivlarni korxonaning innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim iqtisodiy resurs sifatida tavsiflaydi [3]. R. Do'stmurodov nomoddiy aktivlar auditida ularning mavjudligi, huquqiy

rasmiylashtirilishi va baholanishi bo'yicha auditorlik dalillarini to'plash zarurligini asoslaydi [4]. M. Tulaxo'jayeva nomoddiy aktivlar hisobini moliyaviy hisobot shaffofligini ta'minlovchi muhim yo'nalish sifatida ko'rsatadi [5]. D. Kieso, J. Weygandt va T. Warfield nomoddiy aktivlarni patent, mualliflik huquqi, savdo belgisi, franchayzing va gudvill kabi turlarga ajratib, ularni foydali xizmat muddati bo'yicha tasniflashni taklif etadi [6]. B. Needles va M. Powers nomoddiy aktivlarni korxonaga qiymatini shakllantiruvchi uzoq muddatli aktivlar tarkibida baholab, ularning amortizatsiya siyosatiga alohida e'tibor qaratadi [7]. E. Hendriksen va M. Van Breda nomoddiy aktivlarning nazariy mohiyatini aktivlar konsepsiyasi bilan bog'lab, ularni kelgusidagi iqtisodiy manfaatlar manbai sifatida izohlaydi [8]. V. Palij nomoddiy aktivlar hisobida huquqiy egalik, baholash ishonchligi va hujjatlashtirish masalalarini muhim metodologik shart sifatida ta'kidlaydi [9]. Ya. Sokolov esa nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobining murakkab obyektlari qatoriga kiritib, ularni tan olishda iqtisodiy mazmun va huquqiy shakl uyg'unligini ta'minlash zarurligini asoslaydi [10].

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan International Financial Reporting Standards (IFRS) hamda milliy buxgalteriya hisobi standartlarida nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash va amortizatsiya qilishning aniq mezonlari belgilangan. Mazkur standartlarga ko'ra, nomoddiy aktivlar identifikatsiyalanadigan, nazorat qilinadigan va kelgusida iqtisodiy manfaat keltirishi kutilayotgan aktivlar sifatida e'tirof etiladi. Amaliyotda esa ayrim nomoddiy aktivlarni moddiy aktivlardan farqlash, ularning dastlabki qiymatini aniqlash, foydali xizmat muddati hamda amortizatsiya usullarini belgilashda turli muammolar yuzaga kelmoqda. Shundan kelib chiqib, nomoddiy aktivlarni hisob obyekti sifatidagi tasnifi va tavsifini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda xalqaro standartlar asosida takomillashtirilgan hisob mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Rasm ma'lumotlariga ko'ra, 1996–2024-yillar davomida dunyo korporatsiyalarining nomoddiy aktivlari qiymati izchil o'sib, 2024-yilda tarixiy maksimum — 80 trillion AQSH dollariga yetgan. Ushbu o'sish ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D), intellektual mulk, brendlar, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazalari, tashkiliy aktivlar hamda inson kapitalining zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt (AI), raqamli texnologiyalar va innovatsion platformalarning rivojlanishi korporativ qiymat tarkibida nomoddiy aktivlar ulushining keskin oshishiga sabab bo'lmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH nomoddiy aktivlarga eng boy iqtisodiyot sifatida yetakchilik qilib, yirik kompaniyalar korporativ qiymatining qariyb 90 foizi aynan nomoddiy aktivlar hissasiga to'g'ri keladi.



1.1-rasm. Dunyo korporatsiyalarining nomoddiy aktivlari qiymati (trln AQSH dollari)¹

Shu bilan birga, Hindiston, Indoneziya va Braziliya kabi rivojlanayotgan davlatlarda ham nomoddiy aktivlar intensivligi tez sur'atlarda o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Grafikdagi ayrim pasayishlar global moliyaviy inqirozlar va fond bozori tebranishlari bilan izohlansada, umumiy tendensiya korporativ qiymat yaratishda nomoddiy aktivlar asosiy strategik omilga aylanayotganini tasdiqlaydi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda korporativ qiymatning asosiy qismi aynan nomoddiy aktivlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida top-10 kompaniyalar korporativ qiymatining 90 foizi nomoddiy aktivlardan tashkil topgani innovatsiyalar, texnologiyalar, intellektual mulk va brend kapitalining iqtisodiy o'sishdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi. Apple Inc. kompaniyasining yetakchilik qilishi uning dasturiy ekotizimi,


patentlari, brendi va sun'iy intellektga asoslangan texnologik yechimlari bilan izohlanadi. Irlandiya, Daniya va Niderlandiyada ham yuqori ko'rsatkichlarning kuzatilishi ushbu davlatlarda yuqori texnologiyalar, farmatsevtika va raqamli sanoat tarmoqlari rivojlanganini anglatadi. Masalan, Novo Nordisk va ASML kabi kompaniyalar ilmiy-tadqiqot ishlari hamda innovatsion texnologiyalar orqali katta nomoddiy qiymat yaratmoqda. Jadvaldan yana bir muhim jihat shundaki, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar orasida Hindiston va Indoneziya ham yuqori o'rinlarni egallagan. Bu holat ushbu davlatlarda raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya, energetika va texnologik xizmatlar jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi.

1.1-jadval

Nomoddiy aktivlar intensivligi eng yuqori bo'lgan iqtisodiyotlar va ularning nomoddiy aktivlarga eng boy kompaniyalari²

Reyting	Iqtisodiyot	Top-10 kompaniyalarda nomoddiy aktivlar intensivligi, %	Nomoddiy aktivlarga eng boy kompaniya (AQSH dollarida)
1	Amerika Qo'shma Shtatlari	90	Apple Inc.
2	Irlandiya	88	Accenture plc
3	Daniya	87	Novo Nordisk
4	Niderlandiya	86	ASML Holding N.V.
5	Buyuk Britaniya	84	AstraZeneca PLC
6	Fransiya	82	LVMH Moët Hennessy
7	Shveytsariya	82	Nestlé S.A.
8	Hindiston	81	Reliance Industries Ltd.
9	Shvetsiya	78	Atlas Copco AB
10	Indoneziya	76	PT Chandra Asri Pacific

Umuman olganda, jadval natijalari zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar qiymatini shakllantirishda moddiy aktivlarga nisbatan nomoddiy aktivlarning ustun mavqega ega bo'lib borayotganini hamda innovatsion rivojlanish korporativ raqobatbardoshlikning asosiy omiliga aylanganini ko'rsatadi.




1.2-rasm. Dunyo miqyosida nomoddiy aktivlar tarkibining taqsimlanishi.³

Mazkur rasmda dunyo miqyosida nomoddiy aktivlarning asosiy tarkibi va ulushlari aks ettirilgan. rasmdan ko'rinib turibdiki, eng katta ulushni dasturiy ta'minot va IT texnologiyalar bilan bog'liq aktivlar tashkil etib, ular jami nomoddiy aktivlarning 30 foizini egallaydi. Bu holat raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, axborot texnologiyalarining keng joriy qilinishi hamda korxonalar faoliyatida intellektual resurslarning ahamiyati ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, patentlar, tovar belgilari va gudvill kabi aktivlar ham yuqori ulushga ega bo'lib, ular korxonalarining innovatsion salohiyati, bozordagi

¹ Muallif ishlanmasi
² muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi

mavqei va brend qiymatini ifodalovchi muhim iqtisodiy resurslar hisoblanadi. rasmdagi ma'lumotlar nomoddiy aktivlarning zamonaviy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Ayniqsa, xalqaro kompaniyalar faoliyatida intellektual mulk obyektlari korxonaga qiymatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Litsenziyalar va mualliflik huquqlari ulushining mavjudligi esa ilmiy ishlanmalar, media mahsulotlari hamda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ortib borayotganligini anglatadi. Shu sababli nomoddiy aktivlarni to'g'ri tasniflash, baholash va buxgalteriya hisobida ishonchli aks ettirish korxonalarining moliyaviy holatini haqqoniy baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.



1.3-rasm. Nomoddiy aktivlar turlari.⁴

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va intellektual kapitalning rivojlanishi natijasida nomoddiy aktivlar korxonalar faoliyatining eng muhim hisob obyektlaridan biriga aylanmoqda. Dasturiy ta'minot, patent, litsenziya, savdo belgisi, brend qiymati va ilmiy-tadqiqot ishlanmalari kabi aktivlar korxonalarining bozor qiymatini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya qilish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari milliy hamda xalqaro standartlarda alohida tartibga solingan. O'zbekistonda ushbu jarayon 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" standarti orqali tartibga solinsa, xalqaro amaliyotda 38-BHXS "Nomoddiy aktivlar" standarti qo'llaniladi. Mazkur standartlarning maqsadi bir xil bo'lishiga qaramasdan, ularning metodologik yondashuvlari, baholash usullari, aktivlarni tan olish mezonlari hamda moliyaviy hisobotlarda axborotni ochiqlash talablari o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Ayniqsa, xalqaro standartlarda adolatli qiymat, qadrsizlanish testi, cheklanmagan foydali xizmat muddati va innovatsion xarajatlarni kapitalizatsiya qilish kabi jihatlar kengroq yoritilgan. Quyidagi jadvalda 7-son BHMS va 38-BHXS standartlarining asosiy farqli jihatlari tizimli ravishda taqqoslangan.

1.2-jadval

7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" va 38-BHXS "Nomoddiy aktivlar" standartlarining farqli jihatlari⁵

№	Taqqoslash mezonlari	7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar"	38-BHXS "Nomoddiy aktivlar"
1	Standartning qo'llanish sohasi	Milliy buxgalteriya hisobi tizimiga moslashtirilgan	Xalqaro moliyaviy hisobot tizimiga mos
2	Nomoddiy aktiv ta'rifi	Korxonada faoliyatida uzoq muddat foydalaniladigan, moddiy shaklga ega bo'lmagan aktiv	Identifikatsiya qilinadigan, nazorat qilinadigan va kelgusida iqtisodiy naf keltiruvchi aktiv
3	Tan olish mezonlari	Kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi va qiymatini aniqlash mumkin bo'lishi kerak	Kelajakdagi iqtisodiy manfaat va ishonchli baholash talabi mavjud
4	Dastlabki baholash	Asosan haqiqiy tannarx bo'yicha	Xarid qiymati yoki adolatli qiymat asosida
5	Tadqiqot xarajatlari	Ko'pincha xarajat sifatida tan olinadi	Research xarajatlari xarajat sifatida,

⁴ Muallif ishlanmasi

			development xarajatlari esa ayrim shartlarda aktiv sifatida tan olinadi
6	Amortizatsiya	Belgilangan foydali xizmat muddati davomida hisoblanadi	Cheklanmagan muddatli aktivlar amortizatsiya qilinadi, cheklanmagan muddatli aktivlar amortizatsiya qilinmaydi
7	Qayta baholash	Amaliyotda cheklangan	Revaluation modelidan foydalanish mumkin
8	Goodwill hisobi	Alohida tartibda aks ettiriladi	Ichki yaratilgan goodwill tan olinmaydi
9	Aktivni hisobdan chiqarish	Foydalanish muddati tugaganda yoki sotilganda	Aktiv iqtisodiy naf keltirmaganda hisobdan chiqariladi
10	Axborotni ochiqlash	Moliyaviy hisobotlarda qisqaroq ma'lumot beriladi	Batafsil disclosure talablari mavjud
11	Qiymatning kamayishi	Maxsus tartiblar cheklangan	36-son BHXS bilan birgalikda impairment testi o'tkaziladi
12	Dasturiy ta'minot hisobi	Asosan nomoddiy aktiv sifatida	Nomoddiy aktiv sifatida, lekin ayrim hollarda xizmat xarajati sifatida ham ko'riladi
13	Brend va savdo belgisi	Xarid qilingan hollarda tan olinadi	Ichki yaratilgan brendlar tan olinmaydi
14	Moliyaviy hisobot maqsadi	Milliy foydalanuvchilar ehtiyojiga mos	Global investorlar va kapital bozori uchun mo'ljallangan
15	Hisob siyosati moslashuvchanligi	Nisbatan qat'iy	Professional mulohaza va baholash keng qo'llaniladi

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" va 38-BHXS "Nomoddiy aktivlar" standartlari o'rtasidagi asosiy farqlar nomoddiy aktivlarni tan olish, baholash, eskirishni hisoblash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartiblarida namoyon bo'ladi. Har ikkala standartning asosiy maqsadi korxonalarda mavjud bo'lgan nomoddiy aktivlarni to'g'ri hisobga olish va ular haqidagi ma'lumotlarni foydalanuvchilarga ishonchli tarzda taqdim etishdan iborat bo'lsa-da, xalqaro standartlarda iqtisodiy mazmun va bozor qiymatini aks ettirishga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Milliy standarta esa asosan amaldagi milliy hisob tizimi va korxonalar amaliyotidagi soddalashtirilgan usullarga asoslangan. Shu sababli 7-son BHMSda aktivlarni dastlabki tannarx bo'yicha hisobga olish asosiy o'rin egallasa, 38-BHXS da aktivlarni haqiqiy bozor qiymati asosida qayta baholash imkoniyati ham mavjud. Bu esa xalqaro amaliyotda korxonalar aktivlarining real qiymatini aniqlash hamda investorlar uchun yanada shaffof ma'lumot shakllantirish imkonini beradi.

Jadvaldagi eng muhim farqli jihatlardan biri ilmiy tadqiqot va innovatsion xarajatlarni hisobga olish tartibida ko'rinadi. 38-BHXS standartiga ko'ra "tadqiqot" bosqichidagi xarajatlar darhol xarajat sifatida tan olinadi, biroq "ishlanma yaratish" bosqichidagi xarajatlar ma'lum shartlarga javob bersa nomoddiy aktiv sifatida hisobga olinishi mumkin. Bu yondashuv innovatsion faoliyat yurituvchi korxonalar uchun katta

⁵ Muallif ishlanmasi

ahamiyatga ega, chunki ular yaratgan texnologik ishlanmalar kelgusida katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. 7-son BHMSda esa ushbu mexanizm xalqaro standartlarga nisbatan ancha cheklangan bo'lib, ko'plab xarajatlar to'g'ridan-to'g'ri davr xarajatlariga olib boriladi. Natijada milliy moliyaviy hisobotlarda korxonaning intellektual salohiyati va innovatsion qiymati to'liq aks etmasligi mumkin.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Nomoddiy aktivlarni hisob obyektini sifatidagi tasnifi va tavsifini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirish, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda moliyaviy hisobotlarning axborot foydaliligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi tasniflash yondashuvlari nomoddiy aktivlarning ayrim turlarini batafsil guruhlash va ularning iqtisodiy mazmunini to'liq ochib berish imkonini bermaydi. Shu sababli nomoddiy aktivlarni huquqiy asosiga, foydalanish muddatiga, iqtisodiy manfaat keltirish xususiyatiga hamda shakllanish manbalariga ko'ra tizimli tasniflash hisob axborotining aniqligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijada korxonalar rahbariyati, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qaror qabul qilish sifati yaxshilanadi.

Biz tadqiqotimiz davomida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

Nomoddiy aktivlar hisobini analitik jihatdan takomillashtirish maqsadida amaldagi schyotlar tarkibida patentlar, litsenziyalar, dasturiy ta'minotlar, savdo belgilari, mualliflik huquqlari va boshqa intellektual mulk obyektlari bo'yicha alohida analitik subschyotlar joriy etish tavsiya etiladi. Bu ularning harakati va samaradorligini batafsil nazorat qilish imkonini yaratadi.

Moliyaviy hisobotlarning izoh qismida nomoddiy aktivlarning tarkibi, baholash usullari, amortizatsiya siyosati, foydali xizmat muddati hamda ularning korxonalar qiymatini shakllantirishdagi ulushi to'g'risidagi qo'shimcha axborotlarni ochib berish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu investorlar va kreditorlar uchun axborotning shaffofligi hamda foydaliligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References):

1. International Accounting Standard 38. Intangible Assets. – London: IFRS Foundation, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar". – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
3. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 624 b.
4. Do'stmurodov R.D. Audit asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 612 b.
5. Tulaxo'jayeva M.M. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 384 b.
6. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – Hoboken: Wiley, 2020. – 1552 p.
7. Needles B.E., Powers M. Principles of Financial Accounting. – Boston: Cengage Learning, 2018. – 864 p.
8. Hendriksen E.S., Van Breda M.F. Accounting Theory. – New York: McGraw-Hill, 1992. – 905 p.
9. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. – Москва: ИНФРА-М, 2019. – 512 с.
10. Соколов Я.В. Бухгалтерский учет: от истоков до наших дней. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 638 с.